

O‘zbek tili tarixiy matnlari lingvopoetikasi tahlilida “Lahjatu-l-lug‘ot”ning o‘rni

F.f.f.d. Rajabova Umida

UrDU O‘zbek tilshunosligi kafedrasи katta o‘qituvchisi

“Lahjatu-l-lug‘ot” asari o‘zining keng qamrovlligi, faktik materiallarga boyligi bilan o‘zbek mumtoz matnlari lingvopoetikasi tahlilida ham muhim ahamiyatga ega. Xususan, unda Sharq falsafasining murakkab atamalari, kamdan kam o‘quvchilar anglaydigan istilohlarga atroflicha ta’rif berilgani fikrimizning isbotidir.

“Lahjatu-l-lug‘ot” asari materiallari o‘zbek mumtoz matnlarida uchraydigan sinonimlar, aniqrog‘i, sinonim so‘zlar o‘rtasida muayyan ma’no farqlarini aniqlashda katta ahamiyat kasb etadi. Buni “Lahjatu-l-lug‘ot”dagi *at* (ot) maqolasi va o‘zbek mumtoz matnlaridagi *ot* tushunchasini ifodalovchi so‘zlar qiyosi orqali ko‘rishimiz mumkin.

“Lahjatu-l-lug‘ot”dagi *at* lug‘at maqolasi quyidagicha: (qisqartilgan holda mazmuni berilmoqda) “*at... bərtək* yo‘rg‘a otdir; *bâdrənk* tez va chopqir otdir; *bârə* yaxshi otdir; *bârəgi* yaxshi ot va forsiyda *pâsebük* – yuguruk ot; *pâyâ* –yo‘rg‘a ot; *təkavər* – yo‘rg‘a ot; *təvsən* – sarkash ot; *palâni* – tengi kam topiladigan, noyob ot; *tik* – ot; *cərmə* – rangi bo‘z ot; *çâlig* – kamyob ot”. Shu tariqa *çahrî*, *zərdpur*, *səbzhink*, *şûlək kahar*, *kümje*, *nezîc*, *hâykər*, *həmrəf*, *yəkrân* kabi *at* leksemasining ma’nodosh va uyadoshlari keltirilgan.

Lug‘at maqolada muallif o‘zining otlar borasida ancha hayotiy tajribaga ega ekanligini ham namoyon qiladi. Maqola so‘ngida, jumladan, “Arap kavlince atın âlâsı oldur ki başı kuru ola, kalem kulaklı ola, burun delikleri büyük ola, boynu uzun ola, yani dal boyunlu ola karnı ziyade geniş ola ceyran güzeli olup yavuz bakişlı ola ve yürüdükte iki adımı beyni altı zira’ miktan ola, ve soyu iki taraftan malôm ve mazbut ola. Turkmen kavlince atın âlâsı oldur ki onda evveli yedi nesne mevcut ola. Yassı ola, yancıklı ola, ya leyli ola, yepegen ola, yedegen ola, yelegen ola, yaşagan olup çul her yanına dege ve bazı hayal kavlince atın âlâsı çekiç başlı ola, tepeden kulaklı ola, kalkan göğüslü ola, dibek kannlı ola, dal sagnlı ola, elma güzeli ola, okuz bilekli ola, katır

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 6. June 2024

tırnaklı ola, ardi onu ortası çok satanı açık ola şehirlerde ve alaylar olan mahallerde kibara yarar atın *âlâsı* oldur ki öküz başlı sazan enseli ve çatal sağlanlı yere yakın yassı sürücmez kakmaz usti çok gögsü çok eskini çok cebe yorgalı ağır busât kaldırın siniri tamam gömuklu ola. At bir mübarek mahlükтур havâss-i kesîresi vardır. Evvelâ atın tabiatı har ve yâbistir. Riyâhi tahlil eder. Eğer at masumların koltuklarına ve kasıklarına terini ve feci ve zekerine sürseler o mahallerde asla kıl bitmeye. Eğer o ter ile ok temreni ve o misilli demirlere su verseler semiyyet peyda olup o alet ile mecrûh olan elbette helâk ola” deb yozadi.

Ayrim tadqiqotchilar *ot so‘zini* turk-mo‘g‘ul parallellaridan biri sifatida qayd etadilar¹. A.M.Shcherbak esa, aksincha, bu *so‘zni* turk va mo‘g‘ul tillari o‘rtasida hech qanday aloqasi bo‘lmagan *so‘zlar* sirasida qayd etadi².

Qaysi aduv uzraki, yetkurdi *ot*,

Oni piyoda etibon qildi mot. (RD, 256^a)

Ko‘rinib turibdiki, parchada *ot so‘zining* ham zoonim, ham shaxmat atamasi ma’nosi orqali iyhom san’ati yuzaga kelgan. *Piyoda* so‘ziga ham urfiy, ham istilohiy ma’no berish hamda *mot* so‘zining istilohiy va qilmoq yordamchi fe’li bilan birikib anglatgan frazeologik ma’nosi bunga imkon bergen. Baytdagi *aduv*, *piyoda*, *mot qilmoq* so‘zlarining mavjud ma’no tovlanishlarini e’tiborga olib, aytish mumkinki, *ot yetkurmak* fe’li orqali uchinchi ma’no – “nomini baland qilmoq, shukuhidan larzaga solmoq” mazmuni ham nazarda tutilgan. Bu holda baytda zulvujuh³ yuzaga kelgani ayon bo‘ladi. Boshqa misollarga murojaat qilaylik: “ot va tevalarin serob qilib...” (RD, 269^b). Bu kabi misollar Ogahiy tarixiy asarlarining nazmiy qismlari nasriy qismlarga nisbatan lingvoestetik jihatdan ustunligini ko‘rsatadi. Bu, albatta, tabiiy holdir. Ogahiyda otning maxsus bir turi *to ‘pchoq ot* birikmasi orqali ham ifodalangan: “...*to ‘pchoq ot* va zarrin liboslar in’omi bila sarafrozliq etkurdy. (RD, 272^b)

¹ Нуриева А.Х. Татарско-монгольские лексические параллели и определение монголизмов // Тюркское языкознания. – Ташкент: Фан, 1985. – С.379.

² Щербак А. Названия домашних и диких животных в тюркских языках // Историческоразвитие лексики тюркских языков. – М.: Издательство Академии наук, 1987. – С.83.

³ Фахриддин Али Сафий. Латофатнома (Латойиф ут-тавойиф). Форсчадан Хожа Сотимхон Хожа Инъом Мунаввар таржимаси. – Тошкент: Ф.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1996. – Б.7.

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 6. June 2024

Tavsan توسن so‘zi “Navoiy asarlari lug‘ati”da “sho‘x ot, o‘ynoqi ot, to‘pichoq” tarzida izohlanib, forscha so‘z sifatida berilgan⁴. L.Budagov ham ushbu so‘zni turkiy tillar uchun forsiy o‘zlashmalardan biri hisoblagan⁵. M.Mu’in mazkur so‘zning “Devonu lug‘ot it-turk”dan joy olganini qayd etar ekan, uning fors tilida qadimdan ishlatilib kelinayotganini “Lug‘ati furs”dagi Minjik Termiziylig qalamiga mansub bir bayt orqali ko‘rsatadi va uning boshqa eroniylardagi shakli keltirilmagani o‘quvchiga forsiy so‘z bo‘lmasligi mumkinligi xususida xulosa chiqarishi uchun asos bo‘ladi. Fors tilida shu asosda *tavsani* (eski o‘zbek tilida *tavsanliq*) – “sarkashlik qilish, bo‘ysunmaslik” so‘zi yasalgan. M.Mu’in bu so‘zga “Lug‘ati furs”dan joy olgan Og‘ochiy qalamiga mansub quyidagi baytni misol keltiradi:

Tavsaniy kardam nadonistam hame

K-az kashidan saxtar gardad kamon⁶.

“Devon”da *tavsan tusan* شَسْن shaklida “toy” deb izohlangan. S.Mutallibov “bu so‘z Navoiy asarlarida *tavsan* tarzida sho‘x, o‘ynoqi ot ma’nolarida uchraydi” deb qayd etadi⁷. “Alisher Navoiy asarlari tilininng izohli lug‘ati”da “tavsan”ning ma’nolari misollar orqali izohlangan⁸.

Asb so‘zi eroniylardagi tillar uchun umumiy lug‘aviy birliklardan sanalib, uning turli eroniylardagi shakli bir-biriga yaqin⁹. Ogahiyda ot so‘zining ma’nodoshidan tashqari shaxmat atamasi sifatida ham ishlatilgan:

Summi *asb* etib tog‘ni gard-gard,

Hamul nard etib kun yuzin lojuvard. (RD, 259^b)

Research Science and
Innovation House

⁴ Иброхимов С., Шамсиев П. Алишер Навоий асарлари лугати. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – Б. 584.

⁵ Будагов Л.З. Сравнительный словарь турецко-татарских наречий. Том 2. – СПб. – С.394.

⁶ شمس الدین محمد بن خلف تبریزی . برہان قاطع. با اهتمام دکتر محمد معین. تهران. امیر کبیر. ۱۳۸۶ جلد ۲ ص ۹۴۵

⁷ Махмуд Кошгари. Девону луготит турк. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.Муталлибов. – Тошкент: ЎзФАН, 1960. – Б.382.

⁸ Махмуд Кошгари. DLT. 3-jild.

⁹ Эдельман Д.И. Еще раз об этапах филиации арийской языковой общности // Вопросы языкознания. – №3. – 1992. – С.49.

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 6. June 2024

Yilqi so‘zi. Bu so‘z “hayvon” ma’nosida “Qudag‘u bilig”da bir necha bor ishlatilgan¹⁰. Ogahiy tarixiy asarlari tilida *yilqi* shaklidagi so‘z ikki xil ma’no beradi: 1. Yillik, yilga oid: “...har *yilqi* (har yilgi) qarori voqe’ idin ziyoda in’om qilib, ahli sipohni xurram va shodkom qildi”. (RD, 309^a) 2. Ot. “...*yilqi* yili sana ming ikki yuz ellikda...” (RD, 276^a). Muchal hisobidagi ot yili Ogahiy tarixiy asarlarida, asosan, *yilqi yili* shaklida ishlatilgan: “Hamul yil, ya’ni *yilqi yili*... g‘azot savobi tahsili iroda qilib,..” (RD, 286^b); “*yilqi yili* rabialavval oyining o‘n segizida dushanba kunikim, as’adi soot va arshadi avqot erdi”. (JVS, 11^a) Demak, Ogahiy davrida xalqona ifoda shunday bo‘lgan. Xorazmlik keksalar yaqingacha “ot yili”ni “*yilqi yili*” deyishlari sababi shu bilan oydinlashadi.

Alisher Navoiy asarlari tilida bu ikki so‘z alohida shakllarga ega, ya’ni “*yilqi*” (hayvon) *ilqi* ایلقى; “*yilqi*” (yillik, yilgi) esa *ilg‘i* ایلغى tarzida ishlatilgan¹¹. Ogahiy tarixiy asarlarida sintaktik omonimlarga misol bo‘la oladigan badiiy barkamol o‘rinlar aynan *yilqi* so‘zi shakldoshligi bilan bog‘liq. Ularning tahlili, bir tomondan, eski o‘zbek tilidagi lug‘aviy omonimlar tabiatini o‘rganishga yordam bersa, ikkinchi tomondan, Ogahiyning shakldosh so‘zlardan foydalanish bobidagi poetik mahoratidan zavqlantiradi. Masalan, “Jome’ ul-voqe’oti sultoniy”dan joy olgan masnaviylarning birida shunday satrlar bor:

Birov oldi komin surib *yilqisin*,

Na bir *yilqisin*, balki ming *yilqisin*. (JVS, 47^a)

Baytda qo‘llanilgan *yilqisin* so‘zining birinchisi “*yilqisini*”, “ot-ulovini”; ikkinchi va uchinchi qo‘llanishida “*yilgisini*”, “*yilligini*” tarzida tushunish mumkin. Bunda baytning umumiy mazmuni “birovlar maqsadiga erishib (g‘orat qilinganlar)ning ot-ulovini oldi, nafaqat bir ot-ulovini, balki ming ot-ulovini oldi” tarzida namoyon bo‘ladi. Endi aynan shu baytdan o‘zgacha mazmunni anglashimiz ham mumkin, ya’ni bunda bayt mazmuni “birovlar maqsadiga etgan holda (g‘orat qilinganlar)ning *yilqisini* oldi. Ular nafaqat bir yilgi, balki ming yillik orzulariga erishdi” ko‘rinishini oladi. Asarda so‘z ketayotgan voqealar bayoni ham, baytning

¹⁰ Kutadgu bilig. III Indeks. Indeksi neşre hazırlayanlar: Kemal Eraslan, Osman F.Sertkaya, Nuri Yüce. Türk Kültürünu Araşturma Enstitüsü Yayınları:47. Seri IV – A.12. İstanbul, 1979. – S.539.

¹¹Ҳасанов Б. Навоий асарлари учун кисқача луғат. – Тошкент: Фан, 1993. – Б.109.

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 6. June 2024

umumiy ruh va mazmuni ham, muhimi, eski o‘zbek tilining grammatic qurilishi ham bunga imkon beradi. Shuning uchun ham badiiy barkamol satrlar nazmda bo‘lsin, nasrda bo‘lsin, grammatic qoidalarga to‘la rioya qilingin holatdagina yuzaga keladi. Bu kabi baytlar Ogahiy Alisher Navoiyga badiiy mahorat bobida to‘la ergashganligini ko‘rsatib beruvchi faktik material hamdir. Qolaversa, baytda Ogahiy eski o‘zbek tilining leksik va sintaktik imkoniyatlarini namoyon qila olgan. Umuman olganda, tilning qator sathlardagi imkoniyatlari uning sintaktik qurilishida namoyon bo‘lishi ma’lum. Qizig‘i shundaki, *yilqi* (chorva) va *yilqi* (yilgi, yillik) so‘zlarining shakldoshligidan foydalanib, tajnis hosil qilish “Qutadg‘u bilik”da ham uchraydi:

Tili yalg‘an arning jafa qilqi ul,

Jafa kimda ersa o‘shul *yilqi* ul.

Kishi yalg‘anindan tilama vafa,

Bu bir so‘z sinamish o‘kush *yilqi* ul.

Ogahiy “Qutadg‘u bilik” bilan tanish bo‘lmagani aniq. Bunday faktlar esa buyuk iste’dodlar va maslakdoshlar g‘oyibona bir-birlari bilan hamfikr bo‘lishidan darak beradi.

Kumayt so‘zi. “Chahorshanba kuni Yog‘lito‘pa mavzeidin davlat *kumaytig‘a* rukub qilib, ... (RD, 265^b) Bu so‘z Xorazmshoh Otsiz qalamiga mansub quyidagi qit’ada ham ishlatilgan:

اڭر باد پاپىست يكراڭ شاه

كميت مرا هم پاي لنگ نىست¹²

(Tarjimasi: “Agar shoh (Sulton Sanjar)ning yakroni (oti) shamoldek uchqur bo‘lsa ham, bizning kumayt (ot) oyog‘i ham oqsoq emas”). Shu o‘rinda Zabihullo Safo *kumayt* so‘ziga “qizil rangli ot” deb izoh bergen.

Kumayt so‘zi L.Budagov lug‘ati¹³da ham arabcha so‘z sifatida yuqorida qayd etilgan ma’nosida berilgan. Bu so‘z “Navoiy asarlari lug‘ati”da “1. To‘riq, chopqir ot.

¹²نبیح الله صفا. تاریخ ادبیات در ایران. جلد دوم. چاپخانهء ر امین. 1373. ص ۱۳۷۳

¹³ Будагов Л.З. Сравнительный словарь турецко-татарских наречий. Том 2. – СПб. – С.138.

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 6. June 2024

2. Qoramtil qizil ot” tarzida izohlangan bo‘lsa¹⁴, “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati”da faqat “To‘riq ot, chopqir ot” qismi berilgan¹⁵. Bu so‘zning “qoraga moyil qizil sharob” ma’nosni ham mavjud¹⁶. “Burholi qote”da “*kumayti nishot*” birikmasi “qizil sharob” tarzida izohlangan. *Kumaytning siniq ko‘pligi kumt* құмт dir.

Yakron so‘zi tarixan ikki qismdan iborat: *yak+ron*. *Yak* bir (1) ma’nosini berib, qadimgi fors tilida *aivaka*, avestoviyda *aeva*¹⁷, pahlaviy tilida ēv, ēvak shakllariga ega bo‘lgan bo‘lsa, pushtu tilida yo, yag‘nob tilida i shakliga ega¹⁸. Mazkur sonning sharqiy eroniy tillardagi shakli fors tilidagi yoyi vahdat – birlik, yagonalikni ifodalovchi “yo”ning kelib chiqishini oydinlashadi. “Yo-yi vahdat” eski o‘zbek tilida ham keng qo‘llanilgan. Masalan, “...*mehribone topmadim*” (Alisher Navoiy) – “bir mehribon topmadim”; “*zamon ko‘rmadi men kebi nodire*” va hokazo. Xorazmiy tilida artikl masalasi A.A.Freyman tomonidan maxsus tadqiq qilingan¹⁹. Bir sonining yag‘nob tilidagi shakli xorazmiy tilidagi artikl evolyutsiyasini tasavvur qilishga yordam beradi. Shu tarzda Xorazm shevalaridagi *yap* so‘zining etimoni (*y*)i+ap (ob – suv) ekaniga shubha qolmaydi.

So‘zning ikkinchi qismi -*ron* esa forsiy *rondan* 1) haydamoq; 2) yurgizmoq fe’lining hozirgi zamon o‘zagi sanaladi²⁰ va so‘z yasovchi sifatida haydovchi (*govron*); yurgizuvchi (*hukmron*); bo‘ysundiruvchi (*komron*) kabi ma’nolarni beradi. Demak, har ikkala qism birgalikda “bir (zarb bilan) yuruvchi” degan ma’noni beradi. Bunday talqinga shu tipdagи *yaknazar*, *yakson*, *yakrang* kabi so‘zlar ma’nolari asos bo‘ladi.

Mazkur so‘zning yuqoridagi tarzda tarixiy-etimologik tahlili uning onomasiologik jihatini yoritish uchun muhim. Qadimiylug‘atlarda *yakron* “asil va yaxshi ot”; “sariq va qizil orasidagi bir tusli ot”, “yoli va dumi oq ot”²¹ tarzida talqin qilingan. Demak, *yakron* uchun qayd etilganlardan birinchisi xos bo‘lib, nom uchun

¹⁴Навоий асарлари лугати. – Тошкент: F.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – Б.321.

¹⁵Алишер Навоий асарлари тилининг изохли лугати. 2-жилд. – Тошкент: Фан, 1983. – Б.137.

¹⁶فر هنگ لاروسی عربی-فارسی. ترجمهء کتاب المعجم العربی الحدیث. جلد دوم. تهران: امیر کبیر ۱۳۸۰ م.ش. ص ۱۷۳۲

¹⁷Bahrami E., Jonnaydi F.Dictionary of the Avesta. Bonyod-e Nishopur. Vol. 1. – P. 27.

¹⁸ص ۲۴۰ شمس الدین محمد بن خلف تبریزی . برهان قاطع. با اهتمام دکتر محمد معین. تهران. امیر کبیر. ۱۳۸۶ جلد ۴

¹⁹Фрейман А.А. Хорезмийский язык. Материалы и исследования I. – М.-Л.: Издательство Академии наук, 1951. – С.42-44.

²⁰Персидско-русский словарь. Том I. – М.: Русский язык, 1983. – С.710.

²¹ص ۲۴۳ شمس الدین محمد بن خلف تبریزی . برهان قاطع. با اهتمام دکتر محمد معین. تهران. امیر کبیر. ۱۳۸۶

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 6. June 2024

otning rangi emas, xususiyati asos bo‘lgan.

Adham “qorato‘riq ot”²²: “Chobukuvori qalam sahifayi maydonig‘a bu yonglig‘ *adham* surarkim,... (FI, 1038); “Shanba kuni andin nahzat *adhamig‘a* rukub qilib, harakat alamin jilvag‘a kirguzib, dabdabai tamom va kavkabi molokalom bila masnadi xulofotg‘a nuzul qildi”. (FI, 1102)

“Yurumol ot” ma’nosidagi *takovar*²³ ham mana shu guruhga mansub:

Bu yanglig‘ ikki kun amvoji mansur,

Surub ul julg‘ada har yon *takovar*. (RD, 263^b)

Bu so‘z “chopqir ot” ma’nosini anglatganini Ogahiy Buroqni *takovar* deb ta’riflagani ham tasdiqlaydi:

Chu surdi lamakon sari *takovor*,

Bo‘lub payki oning Nomusi Akbar. (RD, 247^a)

Ogahiy tarixiy asarlarida “ot” tushunchasini ifodalovchi so‘zlardan yana biri *raxshdir*:

Ang‘a gom ursa *raxshi* bodraftor,

Botib to tizg‘acha bo‘lg‘usi nokor. (RD, 256^b)

Rustamning afsonaviy oti laqabi ham Raxsh bo‘lgani ma’lum. *Raxsh* haqida “Farhangi “Shohnoma”da e’tiborli ma’lumotlar berilgan²⁴.

O‘zbek mumtoz adiblari tilida *javod* so‘zi ham ishlatilgan. Uning “tulpor” ma’nosini anglatishini arablar orasida – ان خواد قد يعثرون – “Tulpor ham qoqiladi-ku!” maqoli mashhurligidan ham bilsa bo‘ladi. *Javodning* birlamchi ma’nosи “saxovatli” bo‘lib, Ogahiy tarixiy asarlari faqat shu ma’no ko‘zga tashlandi: “Ul (O‘g‘uzxon) basi *javod* va asru oqil erdi”. (FI, 84)

Ko‘rinadiki, o‘zbek mumtoz adabiyotida iloh tushunchasi bilan bog‘liq birliklar tadqiqida “Lahjatu-l-lug‘ot” asaridagi ma’lumotlari tizimliligi alohida e’tibor bilan qaralganligi ajralib turadi.

Innovation House

²² Навоий асарлари лугати. – Тошкент: F.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – Б.31.

²³ Навоий асарлари лугати. – Ko‘rsatilgan nashr. – Б.558.

²⁴ مازنراني حسين شهيد فرنگ شاهنامه (نام کسان و جاها) بلخ بنیاد نشانپور ۱۳۸۸ . ص. ۳۴۶